



ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA ULAR UCHUN YURIDIK JAVOGBARLIK MASALALARI

Bo‘ronova Maftuna Shaymardon qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning mazmun-mohiyati, ularning turlari hamda ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan yuridik javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat organlarining o'рни, ekologik qonunchilikning ahamiyati va fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish zarurati yoritib beriladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida ilmiy-huquqiy xulosalar keltirilgan.


KALIT SO‘ZLAR: ekologiya, atrof-muhit, ekologik huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, ekologik xavfsizlik, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik, tabiiy resurslar.


АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются сущность и содержание правонарушений, совершаемых в сфере охраны окружающей среды, их виды, а также вопросы юридической ответственности за экологические правонарушения. Также освещаются роль государственных органов в обеспечении экологической безопасности, значение экологического законодательства и необходимость повышения экологической культуры граждан. В статье приведены научно-правовые выводы на основе Конституции Республики Узбекистан, Закона «Об охране природы» и других нормативно-правовых актов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: экология, окружающая среда, экологическое правонарушение, юридическая ответственность, экологическая безопасность, административная ответственность, уголовная ответственность, природные ресурсы.

ÖZET: Bu makalede çevrenin korunması alanında meydana gelen hukuka aykırı fiillerin mahiyeti, türleri ve çevre hukukuna ilişkin“ ihlaller için öngörülen hukuki sorumluluk meseleleri analiz edilmektedir. Ayrıca çevre güvenliğinin sağlanmasında devlet organlarının rolü, çevre mevzuatının önemi ve vatandaşların çevre bilincinin artırılmasının gerekliliği ele alınmıştır. Makalede Özbekistan Cumhuriyeti Anayasası, “Doğanın Korunması Hakkında” Kanun ve diğer normatif-hukuki belgeler temelinde bilimsel ve hukuki sonuçlara yer verilmiştir.

АНАhtar KELIMELER: ekoloji, çevre, çevre hukuku ihlali, hukuki sorumluluk, çevre güvenliği, idari sorumluluk, cezai sorumluluk, doğal kaynaklar.





ABSTRACT: This article analyzes the essence and types of offenses committed in the field of environmental protection, as well as the issues of legal liability for environmental offenses. It also highlights the role of state bodies in ensuring environmental safety, the importance of environmental legislation, and the necessity of improving citizens' environmental awareness. The article presents scientific and legal conclusions based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Nature Protection," and other regulatory legal acts.

KEYWORDS: ecology, environment, environmental offense, legal liability, environmental safety, administrative liability, criminal liability, natural resources.


Kirish


Bugungi kunda ekologik muammolar butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyoti, sanoatning rivojlanishi, texnologik jarayonlarning kengayishi va tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida atrof-muhitga sezilarli darajada zarar yetkazilmoqda. Atmosfera havosining ifloslanishi, ichimlik suvlari tanqisligi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, o'rmonlarning qisqarishi hamda biologik xilmaxillikning kamayib borishi ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Ayniqsa, ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'siri bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, atrof-muhitni muhofaza qilish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Chunki tabiat — insoniyatning yashash manbai, iqtisodiy rivojlanishning asosi va kelajak avlod uchun bebaho boylik hisoblanadi. Agar tabiiy resurslardan oqilona foydalanilmasa yoki ekologik qonunchilik talablariga rioya qilinmasa, bu nafaqat tabiatga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ekologik munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish va ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda har bir inson qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun, va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ekologik munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qonunchilik hujjatlari orqali tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik choralari qo'llash tartibi belgilangan.

Ekologik huquqbuzarliklar esa jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazuvchi noqonuniy harakat yoki harakatsizlik sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, noqonuniy daraxt kesish, suv havzalarini ifloslantirish, atmosfera havosiga zararli moddalarni chiqarish, noqonuniy ov qilish yoki





chiqindilarni belgilangan tartibga rioya qilmagan holda tashlash ekologik huquqbuzarliklarning eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlaridan biridir. Bunday harakatlar natijasida ekologik muvozanat buziladi, inson salomatligiga zarar yetadi va tabiiy resurslar kamayib boradi.

Shu sababli ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikni kuchaytirish, ekologik nazorat samaradorligini oshirish hamda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, tabiatni asrash — bu faqat davlat organlarining emas, balki har bir fuqaroning konstitutsiyaviy va ma’naviy burchidir.


Asosiy qism


Ekologik huquqbuzarliklar — bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilik talablarini buzuvchi aybli noqonuniy harakat yoki harakatsizlik hisoblanadi. Bunday huquqbuzarliklar natijasida tabiatga, inson salomatligiga, jamiyat va davlat manfaatlariga moddiy hamda ma’naviy zarar yetkaziladi. Ekologik huquqbuzarliklarning o‘ziga xos jihati shundaki, ularning salbiy oqibatlarini uzoq muddat davomida saqlanib qoladi va kelajak avlod hayotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalasi bugungi kunda xalqaro hamjamiyat va barcha davlatlar oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylantirildi. Jumladan, 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun ekologiya sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu qonunda fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi, davlatning tabiatni muhofaza qilish borasidagi majburiyatlari, tabiiy resurslardan foydalanish prinsiplari hamda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonunning qabul qilinishi O‘zbekistonda ekologik qonunchilik tizimining shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi.

Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida bir qator maxsus qonunlar ham qabul qilingan. Jumladan, 1993-yildagi “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonun, 1996-yildagi “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 1999-yildagi “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonun, 2002-yildagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2013-yildagi “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayniqsa, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun orqali davlat ekologik nazorati, jamoatchilik ekologik nazorati va ishlab chiqarish ekologik nazoratining huquqiy mexanizmlari mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda ham ekologik huquqlarga alohida e’tibor qaratildi. Konstitutsiyaning 49-moddasida har bir shaxs qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqiga egaligi, fuqarolar esa tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majbur ekanligi 62-moddada belgilandi. Bundan tashqari, davlat ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy





boyliklarni muhofaza qilish uchun mas'ul ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yildi. Bu esa ekologik xavfsizlik masalasining davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatadi.


Ekologik huquqbuzarliklarning eng keng tarqalgan turlaridan biri atmosfera havosining ifloslantirilishidir. Sanoat korxonalari, issiqlik elektr stansiyalari, transport vositalari hamda ishlab chiqarish obyektlari tomonidan havoga chiqarilayotgan zararli gazlar ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, karbonat angidrid, oltingugurt dioksidi va boshqa zaharli moddalar inson salomatligiga zarar yetkazib, turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda atmosfera havosini ifloslantiruvchi shaxslar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qo'llash tartibi belgilangan.


Suv resurslarini ifloslantirish ham ekologik huquqbuzarliklarning eng xavfli turlaridan biri hisoblanadi. Daryo, kanal va suv havzalariga sanoat chiqindilarining tashlanishi suvning tabiiy tarkibini buzadi hamda ichimlik suvining sifati yomonlashishiga olib keladi. Ayniqsa, Orol dengizining qurib borishi Markaziy Osiyodagi eng yirik ekologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilgan. Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatning yomonlashuvi natijasida tuproq sho'rlanishi, chang va tuz bo'ronlari kuchayib, aholi salomatligiga jiddiy zarar yetmoqda. Shu sababli davlat tomonidan Orolbo'yi hududini ekologik tiklashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Yer resurslaridan noto'g'ri foydalanish, noqonuniy daraxt kesish va o'rmonlarga zarar yetkazish ham ekologik huquqbuzarliklarning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalar va pestitsidlardan me'yoridan ortiq foydalanish tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. "O'rmon to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, o'rmon fondiga zarar yetkazgan shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular ma'muriy, jinoiy, fuqaroviy-huquqiy va intizomiy javobgarlikdan iborat. Ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi asosida qo'llaniladi. Masalan, ekologik talablarni buzish, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash, suvdan noqonuniy foydalanish kabi huquqbuzarliklar uchun jarimalar belgilanadi. Ayrim hollarda korxonalar faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish choralari ham qo'llanishi mumkin.

Agar ekologik huquqbuzarlik og'ir oqibatlariga olib kelgan bo'lsa, aybdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ekologiya sohasidagi jinoyatlar uchun alohida moddalar mavjud bo'lib, ularda yerlarni zaharlash, suvlarni ifloslantirish, noqonuniy ov qilish, noyob hayvon va o'simlik turlarini yo'q qilish kabi jinoyatlar uchun jazolar nazarda tutilgan. Bunday holatlarda katta miqdordagi jarimalar, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlanishi mumkin.





Fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi esa tabiatga yetkazilgan zararni qoplashdan iboratdir. Ekologik zarar yetkazgan shaxs yoki tashkilot yetkazilgan moddiy va ekologik zararni qoplashga majbur bo‘ladi. Bu esa ekologik muvozanatni tiklash va tabiatni qayta tiklashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishda davlat organlari bilan bir qatorda siyosiy partiyalar va jamoatchilik tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2019-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Ekologik partiyasi ekologik xavfsizlikni ta’minlash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini rivojlantirish hamda tabiiy boyliklarni asrashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Partiya tomonidan ekologik ta’limni rivojlantirish, daraxt ekish aksiyalarini tashkil qilish va ekologik qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.


Shunday qilib, ekologik huquqbuzarliklar nafaqat tabiatga, balki jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ekologik qonunchilikka qat’iy rioya qilish, ekologik nazoratni kuchaytirish hamda fuqarolarning ekologik madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.


Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ekologik huquqbuzarliklar bugungi kunda nafaqat bir davlat yoki hududning, balki butun insoniyatning global muammolaridan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noqonuniy va noo‘rin foydalanish, o‘rmonlarning qisqarishi, suv va havoning zararlanishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Bunday salbiy holatlar esa inson salomatligi, iqtisodiy taraqqiyot va kelajak avlod hayotiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiatni muhofaza qilish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish va ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida keng qamrovli qonunchilik tizimi shakllantirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlashning muhim huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qonun hujjatlari orqali ekologik huquqbuzarliklar uchun ma’muriy, jinoiy, fuqaroviy-huquqiy va intizomiy javobgarlik choralari belgilangan.

Shu bilan birga, ekologik muammolarni faqatgina davlat organlari faoliyati orqali hal etib bo‘lmaydi. Bu jarayonda fuqarolarning ekologik madaniyati, tabiatga bo‘lgan munosabati va ekologik ongining yuksak bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiatni asrash — bu har bir insonning nafaqat huquqiy, balki ma’naviy burchidir. Ayniqsa, yosh avlodda ekologik madaniyatni





shakllantirish, ekologik ta'limni rivojlantirish va jamiyatda ekologik mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik muammolar, atmosfera havosining ifloslanishi va suv tanqisligi ekologik xavfsizlik masalasining naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor ko'rsatmoqda. Shu sababli ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, ekologik nazorat samaradorligini oshirish, zamonaviy ekologik texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Demak, ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikni kuchaytirish, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash va ekologik madaniyatni oshirish orqali atrof-muhitni asrash hamda kelajak avlod uchun sog'lom ekologik muhitni saqlab qolish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi 1.Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni. 1992-yil 9-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni. 1996-yil 27-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonuni. 2013-yil 27-dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to'g'risida”gi Qonuni. 2002-yil 5-aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
8. Rustamboyev M.X. Ekologiya huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
9. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018.
10. O'zbekiston Ekologik partiyasi dasturiy hujjatlari va ekologik xavfsizlikka oid materiallari. – Toshkent, 2019.

